



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТИЗИМИДА RIVOJLANISH MARKAZLARI FAOLIYATINI INTEGRATSIYALASH

*Mirjalolova L.R.*

*Fan va texnologiyalar universiteti prof.v.b.*

**Tayanch soʻzlar:** integratsiya, rivojlanish markazlari, faoliyat, taʼlim, intellekt, pedagogik natija.

**Ключевые слова:** интеграция, центры развития, активность, образование, интеллект, педагогический результат.

**Key words:** integration, centers of development, activity, education, intelligence, pedagogical result.

### **РЕЗЮМЕ:**

Mazkur maqolada maktabgacha taʼlim tashkilotlari guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etishning mazmun-mohiyati, markazlar faoliyatini boshqarish hamda integratsiyalashda tarbiyachining oʻrni yoritilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье раскрыты сущность и содержание организации центров развития в группах дошкольных образовательных организаций, место воспитателя в управление деятельностью центров и интегрировании их.

### **SUMMARY:**

This article reveals the essence of the content of the organization of development centers of preschool educational institutions, the place of the educator in the management of the activities of the centers and their integration.

Jamiyatimiz globallashuv davriga kirgan bugungi kunda taʼlim va tarbiya samaradorligiga qoʻyilayotgan talablar ortdi. Samaradorlik va natijadorlik mezoni sifatida DTS va oʻquv dasturlariga kompetensiyaviy yondashuv singdirildi. Uzluksiz taʼlim jarayonida innovatsiyalar yaratish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, BKMLarni egallashdan kompetensiyalarga qarab borish, taʼlim jarayonini pedagogik texnologiyalar darajasida shakllantirish, bunda psixologik va pedagogik asoslarni hisobga olish masalalariga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. Ushbu masalalarni ilmiy asoslagan holda hal etish zaruriyati mavjudki, bu kabi yechilmay yotgan muammolar metodika fani sohasida ham, tarbiyachilarning nazariy-metodik tayyorgarligida ham oʻzini sezdirib turibdi.



Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning intellektual imkoniyatlarini faoliyatning yetakchi ko'rinishlari orqali hamda ularning psixologik xususiyatlari: qiziqishlari, qobiliyatlari va xarakterini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur. Insonning har tomonlama kamol topishi va psixik barqaror holatda o'sishi ko'p jihatdan uning maktabgacha yoshidagi davrida olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Aynan shuning uchun ham ushbu davrda bolalar bilan olib boriladigan ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarali hisoblanadi.

“Integratsiya” so‘zi lug‘atlarda izohlanishicha lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish (“integr” - to‘liq, butun, yaxlit) degan ma‘noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug‘atlarda “integratsiya” - o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish deyilsa, sohaviy lug‘atlarda “integratsiya” - o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi. Intergativ yondashuv pedagogik jarayonning xohlagan tarkibiy qismida integratsiya tamoyilini ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi hamda uning bir butunligini va tizimlilikini ta‘minlaydi. Integrativ jarayonlar tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimning sifat jihatidan qayta yaratilishi jarayonlaridir. Integratsiya-bu mashg‘ulotlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni mashg‘ulotlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishida namoyon etadi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va yo'nalishlaridan biri integratsion usullarni hamda innovatsion texnologiyalarni amaliyotda samarali qo'llashdir. Bu ta'lim jarayonining sifatini ta'minlaydi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-shaxsiy rivojlanishi uchun jismoniy va aqliy salomatligini, individual-ijodiy rivojlanish trayektoriyasini, kelgusida maktabda sifatli o'qishga psixologik va pedagogik tayyorgarlikni amalga oshirish va atrof-muhitga faol moslashishni hisobga olgan holda optimal sharoitlarni yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining zamonaviy tendensiyalaridan biri-ta'lim mazmunini integratsiyalash asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, rivojlanish markazlari hamda turli faoliyat turlarida (tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, nutq o'stirish, tabiat bilan tanishtirish va hokazo) ijodkorlikka,



mustaqillikka o'rgatish bilan birga emotsional hissiyotiga ta'sirini uyg'unlashtirish bolalarni yanada rivojlantirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

“Integratsiya” so‘zi uyg'unlik, uzviylik ya'ni, birlashtirish, birlamchi degan ma'noni bildiradi. Demak, integratsiyalashtirilgan ta'lim jarayonlari, rivojlanish markazlarini tashkillashtirishda bir xil faoliyat integratsiyasi (masalan plastilindan alohida predmetlarni yasash, syujetli tasvirlar hosil qilish) yoki ushbu faoliyatni bajarish texnikasining integratsiyasi (masalan, barmoq bilan chizish texnikasi, bo'yoqni surish, purkash texnikasi) sodir bo'ladi, buning natijasida bolalar faoliyat turining yangi usullarini o'zlashtirib boradilar.

“Qurilish va konstruksiyalash” markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishga o'rgatish lozim. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin. Rivojlanish markazlarining integratsiyasini ta'minlash bolalarni nutqiy muloqotga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish imkonini beradi. Masalan, bolalar qurilish va konstruksiyalash markazida qurish-yasash, konstruksiyalash ishida qurish materiallari, ya'ni qog'oz, karton, qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar, geometrik shakllar, tangram, mozaika, qutilar, geometrik loto, pazllar va boshqa materiallardan turli xil o'yinchoqlar, inshootlar yasashga o'rganadi. Bu faoliyat orqali kichkintoylar geometrik shakllarning ayrim xossalari va ular bilan bog'liq fazoviy tushunchalarni egallay boradilar. Ular nutqida kub, konus, piramida, silindr va boshqa shu kabi so'zlar paydo bo'ladi. Ayni paytda ular narsa-buyumlarning joylashishi, harakat yo'nalishi kabi aniq tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni ham egallashga harakat qiladilar. Masalan, ustida-tagida, o'ng-chap, tepa-past, orqa-old, yaqinda va hokazo. Keyingi jarayonlarda shu so'zlar ishtirokida gaplar tuza boshlaydi. Xuddi shu jarayon boshqa rivojlanish markazlarida ham davom ettiriladi.

Shuningdek, “Syujetli (mazmunli) - rolli o'yinlar va dramalashtirish” markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynashga xohish-istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo'layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinlarini tushunib yetishlariga yordam



beradi. “Syujetli (mazmunli) - rolli o‘yinlar va dramalashtirish” markazida bolalar faoliyati tashkil etilar ekan, albatta nutqiy mulqot jarayoni yuzaga keladi, ya’ni biror mavzu asosida tashkil etilgan sahna ko‘rinishidagi, mazmunli-rolli o‘yinlar bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini hosil qilishga imkoniyat yaratadi.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida bolalar uchun yangi bilimlarni o‘zlashtirishda mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish hamda bolalar bilimlarini kengaytirib borish, ta’lim-tarbiyaviy faoliyat bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtirish, jarayonni rejalashtirish ta’lim sharoitlariga bog‘liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillarini qo‘llash maqsad qilib olinadi. Masalan, dasturda tayyorlov guruhida sentyabr oyi uchun “O‘zbekiston mening-Vatanim” mavzusi berilgan. Demak shunga ko‘ra birinchi haftasi “Mening qadrdon O‘zbekistonim”, ikkinchi hafta “Mening shahrim – mening mahallam”, uchinchi hafta “Men va mening oilam” va to‘rtinchi hafta “Men va mening do‘stlarim” nomli mavzularga bag‘ishlanadi, ya’ni mazmunan bir-biriga bog‘lanadi. Yoki tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida daraxtlar haqida ma’lumot beriladigan bo‘lsa, bolalarni o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun daraxt rasmini chizdirish maqsad qilib olinadi va hokazo.

Xulosa qilib aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o‘stirish, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, tabiat bilan tanishtirish, elementar matematik tasavvurlar hamda rivojlanish markazlarida faoliyat turlari o‘zaro integratsiyalashtirilganda bola shaxsi shakllanishida, ongli faoliyat yuritish malakalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tasviriy faoliyat jarayonida bola atrof-olamni idrok etadi. Rasm chizish, qurish-yasash, applikatsiya, loy ishiga o‘rgatish hamda boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning nutqiy, aqliy, ma’naviy, estetik va jismoniy rivojlanishiga olib keladi.

#### Adabiyotlar:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 802-son 2020 yil 22- dekabr.
2. F.Umarova. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.T.: 2012
3. R.Mavlanova, N.Raxmankulovalar. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya. T.: 2013
4. D.Jo‘raeva, H.Mamayusupovalar. Rivojlantiruvchi ta’lim markazlarini tashkil etish. T.: 2020
5. A.I.Hayitov. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyava integratsiyasi. T.: 2021
6. L.R.Mirdjalalova. Rivojlanish markazlarini tashkil etish. T.: 2024